

Date: 9th January-2026

O'QUV MARKAZ MUAMMOLARINI HAL QILUVCHI "USTOZTOP"
PLATFORMASINI JORIY ETISH DAVR TALABIDIR

Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich

"Biznes boshqaruvi" kafedrası katta o'qituvchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Yuldashev Azimjon Odil o'g'li

Biznes boshqaruvi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy biznes platformalarni iqtisodiyotga joriy etish orqali foyda olish shu bilan birga jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan biznes modellarning ahamiyati tahlil qilindi. Xususan, O'zbekiston ta'lim bozorida faoliyat ko'rsatishi rejalashtirilayotgan "UstozTop" startap loyihasi o'rganildi. Mazkur platforma ta'lim xizmatlaridagi shaffoflikni ta'minlashda va uning samaradorligini oshirishni shakllantirishgagi muammolarni hal etishga qaratilgan.

Kalit so'z: ijtimoiy tadbirkorlik, startap, ta'lim bozori, shaffoflik, "UstozTop", oilaviy tadbirkorlik, innovatsion yechim.

Kirish: Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida biznes faqat daromad olish vositasi emas, balki jamiyatdagi dolzarb muammolarni hal etuvchi mexanizm sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, ekologiya kabi ko'plab yo'nalishlarda ijtimoiy tadbirkorlik muhim o'rin egallamoqda.

O'zbekiston ta'lim bozorida har yili minglab yangi o'quv markazlari ochilayotganiga qaramay, xizmatlar sifati, ustozlar malakasi va markazlarning natijalari bo'yicha shaffof axborot tizimi yetishmayapti. Shu sababli ota-onalar va ularning farzandalari ya'ni, abiturentlar, talabalar ko'pincha sifatli ustoz yoki o'quv markazni tanlashda qiyinchilikka duch kelmoqda. Shu sababli aynan anashunday ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan "UstozTop" platformasining imkoniyatlarini kengaytirish davr talabidir. Shu nuqtai nazardan, ta'lim sohasida raqamli yechimlarni joriy etish ijtimoiy tadbirkorlikning eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali ta'lim xizmatlari bozorida shaffoflikni ta'minlash, sifat ko'rsatkichlarini baholash va iste'molchilarning ongli tanlov qilishiga ko'maklashish mumkin. ayniqsa, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari uchun ishonchli, tizimlashtirilgan va ochiq axborot manbalarining mavjudligi ta'lim sifatini oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

"Ustoztop" platformasi aynan ushbu ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo'lib, u ustozlar, o'quv markazlari va ta'lim oluvchilar o'rtasida samarali axborot almashinuvini yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Ushbu platforma orqali ustozlarning malakasi, tajribasi, reytingi hamda o'quv markazlarining faoliyat natijalari bo'yicha ma'lumotlarni jamlash va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta'lim bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, sifatli xizmat ko'rsatuvchilarni rag'batlantirish va past sifatli xizmatlar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi natijada, "ustoztop"



Date: 9th January-2026

platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning ta'lim bozoridagi muammolarni hal etishdagi roli hamda ijtimoiy tadbirkorlik modeli sifatidagi istiqbollari kengayib boradi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishishda "Ustoztop" platformasining ta'lim bozoridagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama yoritish, ilmiy tadqiqotning zamonaviy va amaliy metodlaridan foydalanish hozirgi kunning pirovard natijalaridan biri hisoblanadi. Shu asosda tanlangan metodlar ta'lim xizmatlari bozorida mavjud muammolarni aniqlash, startapning biznes va texnologik modelini baholash hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini aniqlash imkonini beradigan tizimli yondashuv asosida shakllantirishdan iborat. Ana shunday, metodologik yondashuv tadqiqot obyekтини bir tomonlama emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlarni o'zaro bog'liq holda o'rganishga xizmat qiladi. Uning natijasida, olingan xulosalarning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyati ta'minlanib, "Ustoztop" platformasining ijtimoiy tadbirkorlik loyihasi sifatidagi samaradorligini kompleks baholash imkoniyati kengayishini ko'rish mumkin.


Metadalogik tadqiqot quyidagilar asosida olib borildi:

1. Muammoning tahlili – O'zbekistonning ta'lim bozoridagi mavjud kamchiliklari statistik va sifat tahlili orqali o'rganildi.
2. Startap modelining tahlili – "UstozTop" platformasining biznes modeli, qiymat taklifi, funksional imkoniyatlari va texnik infratuzilmasi o'rganildi.
3. Taqqoslash usuli – rivojlangan davlatlardagi shunga o'xshash "EdTech" platformalar bilan solishtirildi.
4. Ijtimoiy ta'sirni baholash – loyiha joriy etilganda ta'lim sifati, axborot shaffofligi va iste'molchi tanlovi yaxshilanishi darajasi tahlil qilindi.

Umuman yo'qorida keltirilgan metadalogik tadqiqot asosida olib borilgan tahlillar "Ustoztop" platformasining O'zbekiston ta'lim bozorida dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan samarali startap ekanligini ko'rish mumkin. Muammoning tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimidagi mavjud kamchiliklar aniqlanib, startap modeli tahlili platformaning iqtisodiy jihatdan asoslanganligi va texnik imkoniyatlari yetarli ekanligini tasdiqlaydi. Xorijiy edtech platformalar bilan taqqoslash natijalari "Ustoztop"ning raqobatbardoshligini ko'rsatgan bo'lsa, ijtimoiy ta'sir baholash loyiha ta'lim sifati, shaffoflik va iste'molchi tanlovini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Umuman olganda, mazkur metodologiya startapning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini kompleks baholash imkonini berib, uni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq ekanini asoslab berdi (1-rasm).



Date: 9th January-2026



1-rasm. Bulutli (cloud-based) edtech platformaning texnik arxitekturasini.

Ushbu 1-rasm, bulutli (cloud-based) edtech platformaning texnik arxitekturasini ko'rsatadi. Uni bosqichma-bosqich tahlil qiladigan u "ustoztop" loyihani mantiqan bir-biri bilan bog'lab beradi. Bunda, butun tizim google cloud platform (gcp) asosida qurilgani ko'rinadi arxitektura masshtablanuvchan, xavfsiz va yuqori yuklamaga bardoshli qilib loyihalangan, bu ayniqsa ko'p foydalanuvchili ta'lim platformalari uchun muhim hisoblanadi.

Bu bo'yicha, O'zbekistonning ta'lim xizmatlarini yagona raqamli platformada birlashtiradigan innovatsion tizimni yo'lga quyishga quyidagilarni amalga oshirishdan iborat:

birinchidan ustozlar profili bunda har bir o'qituvchi haqidagi ma'lumotlar shakllantiriladi. Xususan:

- Ustozlarning tajribasi, yutuqlari, sertifikatlar;
- Dars uslubi va metodikasi;
- Videodars namunalarini ko'rsatish imkoniyati;
- O'quvchilarning test ballari va grant natijalari.

Bu shaffoflik orqali ota-onalar va talabalar o'z tanlovini aniq qilishlari mumkin. Masalan, Toshkent shahridagi 5 000 ta repetitor orasidan tajribali va natijasi yuqori bo'lgan ustozlarni tezda topish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchidan, o'quv markazlarining profilida har bir markaz uchun:

- manzil, filiallar, ish vaqti;
- dars jadvali va yo'nalishlar;
- o'quvchilar soni va ularning natijalari.
- reyting va sharh tizimi
- real o'quvchilarning sharh qoldishi;
- 5 ballik reyting tizimining mavjudligi;
- Moderatsiya va tekshirish tizimining soxta sharhlari cheklanishi.

Date: 9th January-2026

Mana shu raqamlashtirilgan profil orqali markazlar faoliyati va samaradorligi ko'rinadi, bu esa kichik markazlar uchun bozor raqobatida barqarorlik tizimi orqali ota-onalar va tinglovchilar tanlovdagi xatolarni 40–50% gacha kamaytirishi mumkin.

Uchinchidan tinglovchilar o'zlarining qiziqtirgan - fan, joylashuv, narx, ustoz tajribasi, dars jadvali bo'yicha aniq qidirish va shu bilan birga mobil ilova orqali tezkor moslashuvchan imkoniyatini beradi.

To'rtinchidan, CRM moduli (markazlar uchun) bu kichik o'quv markazlar uchun raqamli boshqaruv vositasi hisoblanadi.

- O'quvchilar ro'yxati va statistikasi;
- To'lovlar va darslar monitoringi;
- Har bir markazning xaritada ko'rinishi;
- Ota-onalar va talabalar uchun logistika qulayligi oshadi.

CRM modulining joriy etilishi kichik o'quv markazlari faoliyatini raqamlashtirish va samarali boshqarishning muhim vositasi hisoblanar ekan bu modul orqali o'quvchilar ro'yxati va ularning statistikasi tizimli yuritilib, to'lovlar hamda dars jarayonlari ustidan doimiy monitoring amalga oshiriladi. Shuningdek, o'quv markazlarining xaritada aniq ko'rinishi ota-onalar va talabalar uchun joylashuv hamda qatnov masalalarida qulaylik yaratadi. Buning natijasida, boshqaruv jarayonlari soddalashib, markazlar faoliyatining shaffofligi va samaradorligi oshadi, ta'lim xizmatlari sifati esa yanada yaxshilanadi.

Bu borada, O'zbekiston ta'lim bozorining hajmi so'nggi yillarda sezilarli o'sishga erishmoqda. 2025-yilning statistik ma'lumotlariga ko'ra:

- 15 000 dan ortiq o'quv markazi faoliyat yuritmoqda;
- 7,5 mingta kasbga tayyorlash markazlari
- 38 465 ga yaqin repetitor mavjud;
- Yillik qo'shimcha ta'lim olishga ehtiyoj sezadigan o'quvchilar soni 1,5 mln

kishidan oshadi.

Statistik ma'lumotlardan ma'lumki, O'zbekistonda ta'lim bozorining keng ko'lamli va yuqori o'sish salohiyatiga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi shu jumladan, o'quv markazlari va repetitorlar sonining ko'pligi bozorning raqobatbardoshligini oshirayotgan bo'lsa, qo'shimcha ta'limga bo'lgan talabning 1,5 mln nafardan ortiq o'quvchini qamrab olishi ushbu sohada raqamli platformalar va innovatsion yechimlarga ehtiyoj yuqori ekanini ko'rsatadi. Demak, bunday sharoitda ta'lim xizmatlarini tizimlashtiruvchi, shaffoflik va tanlov imkoniyatini kengaytiruvchi startaplar bozor talabiga to'liq mos keladi va barqaror rivojlanish uchun mustahkam asosga ega hisoblanadi. Shu bilan birga bozor hajmining katta bo'lishiga qaramay, quyidagi muammolar ham mavjud:

1. Shaffof ma'lumotlar yo'qligi: masalan, o'quv markazdagi o'qituvchilarning malakasi, sertifikatlari, yutuqlari va o'quvchilari natijalari ochiq e'lon qilinmaydi. Bu ota-onalar va talabalar uchun to'g'ri tanlov qilishni qiyinlashtiradi.

2. Natijaga asoslanmagan reklama: bozorning raqobati ko'proq reklama kuchiga bog'liq bo'lib qolganligi, bu borada real natija, sifatga e'tibor berilmasligi.



Date: 9th January-2026

3. Sharh va reyting (samaradorlikni baholash) tizimining yo'qligi: repetitor va o'quv markazlar haqidagi real foydalanuvchilarning fikri va ta'lim bozorida tinglovchi larning oliy (xalqaro xorijiy) ta'limga qamrovi natjalarini baholash muammolari.

4. Qidiruv jarayonining murakkabligi: Fanlar, joylashuv manzili va narx bo'yicha tezkor taqqoslash imkoniyatining yo'qligi.

5. Raqamlashtirishning past darajasi: ko'pgina o'quv markazlari IT tizimlarini to'liq joriy qilmagan, bu esa boshqaruv samaradorligini pasaytiradi. Bu muammolar iste'molchilar tanlovini qiyinlashtirib, ta'limga bo'lgan sifatni kamaytiradi. Shu bilan birga, o'quv markazlarning rivojlanishi uchun imkoniyatni to'liq qo'llay olmaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish nuqtai nazaridan qaralganda, O'zbekiston ta'lim bozorida kompleks va raqamli yechimlarni joriy etish zarurati yaqqol namoyon bo'ladi. Eng avvalo, shaffof ma'lumotlar yetishmasligi muammosini hal etish uchun o'quv markazlari va repetitorlar faoliyatiga oid yagona ochiq axborot platformasini yaratish lozim bo'ladi, unda o'qituvchilarning malakasi, sertifikatlari, tajribasi va o'quvchilar natijalari tizimli ravishda aks ettirilishi kerak bu ota-onalar va tinglovchilar uchun ongli va asosli tanlov qilish imkonini yaratadi.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "UstozTop" loyihasi O'zbekiston ta'lim bozoridagi shaffoflik muammosini hal qiluvchi innovatsion startapdir. Platforma har bir ustoz va markaz uchun profil yaratib, tajriba, sertifikatlar, dars uslubi va o'quvchilar natijalarini ko'rsatadi. Bu ota-onalar va talabalar uchun to'g'ri tanlov imkonini beradi va ta'lim sifatini oshiradi.

Loyiha kichik va oilaviy markazlarga raqamli boshqaruv vositalarini taqdim etadi, samaradorlikni oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Reyting va sharh tizimi orqali halol raqobat yuzaga keladi, natijada tanlovdagi xatolar 40–50% gacha kamayadi.

"UstozTop" O'zbekistonda farovonligiga hissa qo'shadi, ta'lim madaniyatini rivojlantiradi va barqaror daromad bilan faoliyat ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

https://uz.kursiv.media/uz/2025-06-30/ozbekistonda-qancha-oquv-markazlari-mavjud/?utm_campaign=endless_feed

<https://talimxabarlari.uz/60841/>

